

Qavm unga nima javob qildi?



19:50 / 26.11.2019 4290

12

Nuh qavmi orasida turib: **«Albatta, men siz uchun ochiq-oydin ogohlantiruvchiman»**, deganida, ba'zi odamlar: **«Bu qachon payg'ambar bo'lib qoldi?»** dedilar.

Kecha o'zimizdan bo'lgan bir kishi edi, bugun esa men sizlarga Allohning elchisiman, deydi.

Nuhning do'stlari: «Bu biz bilan yoshlikda birga o'ynar edi, har kuni biz bilan o'tirar edi. Qachon unga nubuvvat keldi? Kechqurunmi yoki kunduzimi?!

Boylar va mutakabbirlar: «Alloh undan boshqa biror kishi topa olmadimi? Insonlarning hammasi o'lganmi? Qavmdan faqat bir kambag'aldan boshqasini topa olmadimi?» deyishdi.

Johillar: «Bu sizga o'xshagan bashar xolos» deyishdi.

Yana ular: **«Agar Alloh xohlasa, farishtalarni tushirar edi. Avvalgi otabobolarimizda buni eshitgan emasmiz»** (*Mo'minun surasi, 24-oyat*).

Odamlarning ba'zilari: «Albatta Nuh bu yo'l bilan boshlig'lik va sharafga erishmoqchi», deyishdi.